

KREATIV IQTISODIYOT FENOMENI

Sardor Ulug'bekov

Buxoro innovatsiyalar universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya. Kreativ iqtisodiyot va kreativ industriyaning rivojlanishi muammosi so'nggi yillarda dunyoda katta qiziqish uyg'otmoqda. Maqolada kreativ iqtisodiyotning mohiyati va xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, kreativ industriya, ijodiyot, ijodiy ishlanmalar, transformatsiya, intellektual mulk.

ФЕНОМЕН КРЕАТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ

Сардор Улугбеков

Бухарский университет инноваций, преподаватель

Аннотация. Проблема развития креативной экономики и креативной индустрии в последние годы вызывает большой интерес в мире. В статье раскрыты сущность и особенности креативной экономики.

Ключевые слова: креативная экономика, креативная индустрия, творчество, творческие разработки, трансформация, интеллектуальная собственность.

PHENOMENON OF CREATIVE ECONOMY

Sardor Ulugbekov

Bukhara University of Innovation, lecturer

Abstract. The problem of developing the creative economy and creative industry has attracted great interest in the world in recent years. The article reveals the essence and features of the creative economy.

Key words: creative economy, creative industry, creativity, creative developments, transformation, intellectual property.

Ijodiy iqtisodiyot – hozirgi vaqtda mehnat va kapital kabi ishlab chiqarishning asosiy omillarining ustun intellektual tarkibiy qismiga asoslangan postindustrial mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng ilg'or shakli hisoblanadi. Ilmiy va ijodiy ishlanmalar jamiyatlarni transformatsiyasining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, kreativ iqtisodiyotning an'anaviy iqtisodiy tuzilmadan asosiy farqi shundaki, undagi asosiy vosita - bilim, resurs - axborot, mahsulot esa - innovatsiyadir [4].

“Xalqaro tahliliy byuro” tashkiloti ekspertlarining fikricha, kreativ iqtisodiyotdagi menejerning kasbiy (professional) portreti quyidagi parametrlar bilan tavsiflanishi kerak [6]:

- kreativ va intellektual tayyorgarlikning yuqori darajasi;
- analitik va prognostik nostandart fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish;
- yuzaki bo'lmagan muammolarning mohiyatini aniqlash va ularni hal qilish imkoniyatlarini adekvat baholash qobiliyati;
- yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik va munosib oliy ma'lumotga ega bo'lishi;
- zamonaviy vositalar va usullarni (shu jumladan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini) o'zlashtirish;
- yuqori darajadagi muloqot qobiliyatiga ega;
- kreativ iqtisodiyot sharoitlarida odamlarni ijtimoiy-psixologik boshqarish vositalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish va hokazo.

Kreativ iqtisodiyot tushunchasi birinchi marta 2000-yilda Business Week jurnalidagi maqolada tilga olingan. Unda muallif XXI asrda kompaniyalarning taraqqiyotida kreativ g'oyalarning ahamiyati ortib, intellektual resurslar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanishi hamda yangi iqtisodiyot sharoitlariga moslashish imkoniyatlari haqida fikr yuritgan. Jon Xokins bu tarmoqqa reklama, arxitektura, san'at, hunarmandchilik, dizayn, moda, kino, musiqa, radio va televideniye, ilmiy tadqiqotlar, nashriyot, dasturiy ta'minot, ijrochilik, fotografiya, o'yin ishlab chiqarish va hokazo sohalardagi kasblarni kiritdi. Bu sohalarning barchasi mahsulot yaratishda intellektual mehnatni talab qiladi [7]. Aynan shu sohalar kreativ industriyalar deb ataladi va kreativ iqtisodiyotning o'zagini tashkil qiladi.

Buyuk Britaniya hukumati Madaniyat, ommaviy axborot vositalari va sport departamenti tomonidan qabul qilingan ijodiy industriyalarning rasmiy ta'rifi: "bu - ...individual ijodkorlik, mahorat yoki iste'dodga tayanadigan faoliyat bo'lib, u intellektual mulkni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilish orqali qo'shimcha qiymat va ish joylarini (bandlikni) yaratishi mumkin"[2].

Kreativ industriyalar innovatsion rivojlanishning drayveri hisoblanadi va bozorning boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori o'sishni namoyish etadi. Dunyoda kreativ iqtisodiyot sektorining yuksalishi, birinchi navbatda, mobil qurilmalar sonining o'sishi va internetning ikkinchi avlodi – web 2.0 formatining paydo bo'lishi bilan izohlanadi. U interaktivlik va foydalanuvchi tarkibini joylashtirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Keyingi rivojlanish ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi va kontent yaratuvchilar sonining ko'payishi tufayli davom etdi.

Kreativ iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari:

1. G'oyalar, bilimlar, intellektual mehnat va intellektual mulk ob'yektlari, fan va madaniyat sohasidagi yutuqlar, innovatsiyalar, xizmat ko'rsatish biznes texnologiyalari qiymatini oshirish.

2. Intellektual mehnat mahsulotlari (patentlar, mualliflik huquqlari, tovar belgilari) hisobiga iqtisodiy o'sish omillari (kapital va mehnat) sonini kengaytirish.

3. Ijodiy qobiliyatlar, boshqaruv malakasi va innovatsion rivojlanish sohasidagi bilimlarni talab qiladigan ijtimoiy ishlab chiqarish sohalarida band bo'lgan mutaxassislar salmog'ini oshirish.

4. Xizmat ko'rsatish sohasining ishlab chiqarish sektoridan ustunligi.

5. Internet tufayli global miqyosda g'oyalar tashuvchilari va iste'molchilari o'rtasidagi tarmoq aloqalarini kengaytirish.

6. Ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va inson kapitali sifatini oshirishga investitsiyalar hajmini oshirish.

Kreativ iqtisodiyot mahsulotlariga kino ishlab chiqarish, animatsion filmlar, IT-ilovalar, VR/AAR, kompyuter o'yinlari, san'at va boshqa tegishli ijodiy industriyalar kiradi. Bu sohalar san'at, madaniyat, biznes, texnologiyalar chorrahasida faoliyat yuritadi. Shu tariqa, kreativ iqtisodiyot aqliy mehnatga asoslangan bo'lib, an'anaviy ishlab chiqarish omillaridan farqli o'laroq, nafaqat yakuniy yaratilgan mahsulotdan, balki uning natijalari va intellektual mulk huquqlarini sotishdan ham daromad keltiradi.

BMT 2021-yilni Barqaror rivojlanish uchun Xalqaro ijodiy iqtisodiyot yili, deb e'lon qildi. "Influencer Marketing Hub" ma'lumotiga ko'ra, ijodiy iqtisodiyotning global bozori 2024-yilga borib 1 trillion dollarga yetadi. Jahonda kreativ iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan global tarmoqlardan biriga aylanib borayotganini alohida ta'kidlash o'rinli [3].

2021-2023 yillardagi O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlarida kreativ iqtisodiyot yoki kreativ industriya so'zlari uchramagan, kreativ iqtisodiyot asosan, "startap"lar, ya'ni yangicha biznes-loyihalar, original g'oyalarni qo'llab-quvvatlash orqali fuqarolarning ishlab chiqarishdagi faol ishtirokini nazarda tutgan. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 3 oktyabrdagi O'RQ-970-sonli "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonunida quyidagi tushunchalar qo'llanilgan (3-modda) [1]:

kreativ industriya - ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek intellektual mulk ustuvorligiga asoslangan va iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlarining majmui;

kreativ industriya parki - O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida eksterritoriallik printsiplari asosida kreativ industriya sohalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida faoliyat olib boradigan tashkiliy-huquqiy tuzilma;

kreativ industriya sub'yektlari - kreativ mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish, saqlash, tarqatish va ilgari surish bilan shug'ullanadigan jismoniy va yuridik shaxslar;

kreativ iqtisodiyot - ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek, innovatsiyalarga hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog'i;

креатив mahsulot - kreativ iqtisodiyot sohasida iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), shuningdek boshqa fuqaroviy-huquqiy bitimlar ob'yektlari.

Qonunda kreativ iqtisodiyot sohasidagi asosiy tamoyillar sifatida qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik, ijod erkinligi, tenglik, kreativ mahsulotning huquqiy muhofaza qilinishi ko'rsatilgan (4-modda) [1].

Aholini tadbirkorlikka keng jalb etish, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, buning uchun qulay infratuzilma va biznes muhiti yaratish, huquqiy asoslarni mustahkamlash choralari ko'rish uchun zamon talablariga mos yangi g'oya va tashabbuslarni hayotga tatbiq etish muhimdir. Bugun yangi O'zbekiston rivojlanish hamda yuksalish davriga keng quloq yoyib bormoqda. Buni xalqimiz, xususan, yoshlarimiz ham yaxshi anglaydi. Prezidentimizning "Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundagina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi" degan so'zlari yoshlarni ruhlantirib, yangi orzu-maqсад, yangi niyat, yangi davr maydoni hamda sarhadlari sari chorlayveradi. Qaysi ishda tashabbus va intilish bo'lsa, o'sha manzilda yuksalish bo'ladi.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash kerakki, bugungi kunda, CISAC (International Confederation of Societies of Authors and Composers - Xalqaro Mualliflar va Bastakorlar Jamiyatlari Konfederatsiyasi) va Ernst & Young ma'lumotlariga ko'ra, kreativ iqtisodiyot jahon yalpi ichki mahsulotining 3 foizini tashkil qiladi va dunyoning iqtisodiy faol aholisining 1 foizini ish bilan ta'minlaydi [5]. Buning natijasida iqtisodiyotning turli sohalariga oid tashkilotlarda muvaffaqiyatli va samarali faoliyat yuritayotgan ijodkor, kreativ insonlar sonining ko'payish fenomeni kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 3 октябрдаги ЎРҚ-970-сонли "Креатив иқтисодиёт тўғрисида"ги Қонуни // URL: <https://lex.uz/ru/docs/7129258>
2. Гнедовский М. Творческие индустрии: политический вызов для России / URL: <http://www.strana-oz.ru/2005/4/tvorcheskie-industrii-politicheskii-vyzov-dlya-rossii>
3. Do'smuhamedov O. Kreativ iqtisodiyot mohiyati va uni rivojlantirishning jahon tajribasi / URL: <https://yuz.uz/uz/news/kreativ-iqtisodiyot-mohiyati-va-uni-rivojlantirishning-jahon-tajribasi>
4. Дацык А. Исследование тенденций креативной экономики в России и за рубежом // Проблемы развития инновационно-креативной экономики: сборник докладов. Москва: Креативная экономика, 2011.- 496 с.
5. Новикова С.К. Креативная экономика как драйвер роста: мировой и российский опыт. // Новые технологии. 2019. №2. – С. 175-184.
6. Степанов А. А., Савина М. В. Креативная экономика: сущность и проблемы развития. // Управление экономическими системами: электронный научный журнал. 2013. №12 (60). – С. 104.
7. Хокинс Дж. Креативная экономика. - Москва: Классика XXI век, 2011. - 256 с.